

**SUG'DIYONANING ILK TEMIR DAVRIGA OID MODDIY MADANIYATI
(AFROSIYOB XAROBALARI MISOLIDA)**

Hikmatova Salomat Hamza qizi

BuxDU Arxeologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qadimgi Sug'diyonaning ilk temir davriga oid moddiy madaniyati, shuningdek, Afrosiyob xarobalaridan topilgan moddiy madaniy topilmalar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Afrosiyob, Sug'diyona, Samarqand, temir, moddiy madaniyat, kulolchilik, tepalik, arxeologiya, arxeologik qo'riqxona, hunarmandchilik buyumlari.*

Abstract: *This article scientifically analyzes the material culture of ancient Sogdiana during the Early Iron Age, as well as the material cultural finds found in the ruins of Afrosiab.*

Keywords: *Afrosiab, Sogdiana, Samarkand, iron, material culture, pottery, hill, archeology, archaeological reserve, handicrafts*

Afrosiyob - Samarqandning qadimgi xarobasi. Bu nom tarixiy manbalarda qadimgi Samarqandga nisbatan faqat XVII asrdan boshlab uchraydi. Qadimgi Samarqand sug'd manbalarida Smarakanve deb atalgan. Mil. av. 4-asrda Samarqand Aleksandr Maqsuniy qo'shinlari tomonidan istilo etilgach, yunon mualliflari kundaliklarida Maroqanda sifatida eslatiladi. Maroqanda Smarakanvening yunoncha tarjimasi. Mavarounnahrda somoniylar hokimiyat tepasiga kelgach, qadimgi Smarakanve 9-asrdan boshlab Samarqand deb atala boshlandi.

XI — XV asrlarda turkiy tilda bitilgan adabiyotlarda Samarqand Semizkent sifatida uchraydi. XV asrdan forsiy va turkiy tillardagi manbalarda bir xilda Samarqand nomi ishlatiladigan bo'ldi.

Afrosiyob hozirgi Samarqandning shimoliy chegarasiga tutashgan keng bo'sh tepaliklar bo'lib, uning maydoni 219 gettarni tashkil etadi. Tepalikning shimoliy tomoni Siyob arig'i bilan chegaralangan. Janub tomonidan "eski shahar" deb atalgan Samarqandga qo'shilib ketgan. Shaharning dastlabki tarixi haqida yozma manbalarda ma'lumotlar juda kam uchraydi. Ko'hna shaharda o'tkazilgan arxeologik qazishlar esa bunday ma'lumotlarni ko'proq bermoqda. Arxeologik qazishmalar bir necha metr qalinlikdagi madaniy qatlamlar qanday bo'lganligini ko'rishga, boylar va kambag'allarning uylarini, hunarmandlarning ustaxonalarini, savdogarlarning do'konlarini, ko'cha va maydonlarni, shohona saroylar va ibodatxona, masjid va madrasalarni, mudofaa inshootlarini, shaharning suv bilan ta'minlash tizimi aniqlashga yordam beradi.

Afrosiyob va uning topilmalariga qiziqish 1868-yilda Chor Rossiysi tomonidan Samarqand bosib olingandan keyin boshlandi. Afrosiyobda dastlabki qazish ishlari bilan mayor Borzenkov (1874 y), podpolkovnik V.V. Krestovskiy (1883 y), sharqshunos olimlar N.I. Veselovskiy (1884-85, 1895), V.V. Bartold (1904 y) va V.L. Vyatkin (1905; 1912-

13)lar shug'ullanishdi. 1919-yilda M.Y.Masson, V.L. Vyatkin tadqiqot boshlagan joylarda qazish ishlarini davom ettirib, somoniylar saroyi (IX asr) xarobalarini ochdi. 1925, 1929-30 yilarda V.L.Vyatkin Afrosiyobda qazish ishlarini davom ettiradi va uning turli davrdagi tarixiga oid ko'plab materiallar to'playdi. Ammo, 1930-yillarga qadar Afrosiyobda olib borilgan arxeologik qazishmalar qadimgi Samarqand tarixiga doir juda kam materiallar bergen. Urushdan keyin O'zbekiston FAning Tarix va arxeologiya instituti olimlaridan Afrosiyob I. Terenojkin tomonidan Afrosiyobda jiddiy dala tadqiqotlari o'tkazildi. Natijada uning eng pastki qatlamanidan miloddan avvalgi VI-V asrlarga taalluqli buyumlar, uy-joy xarobalari topildi.

Afrosiyob Shishkin (1958-66 yy) va Y.F. G'ulomov (1967-70 yy)lar rahbarligida olib borilgan keng ko'lamli arxeologik qazishlar natijasida qadimgi madaniy qatlama materiallari Afrosiyobning boshqa joylaridan ham topildi. 1966-yil 13-iyulda Afrosiyobni arxeologik jihatdan kompleks o'rghanishni tashkil etish maqsadida Respublika hukumatining maxsus qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, Afrosiyob "arxeologik qo'riqxona" deb e'lon qilinib, uni o'rghanish ishiga Toshkent va Samarqand davlat universitetlari hamda Madaniyat vazirligining San'atshunoslik instituti ham safarbar etildi. Aniq ilmiy rejalar asosida boshlangan arxeologik tadqiqotlar tufayli nafaqat shaharning ko'p asrlik yoshi, balki, uning har xil davrlardagi tarixiy topografiysi, shahar tarkibi, shahar hayotining rivojlanish bosqichlari, bosqinlar tufayli yuz bergen bo'hronlar davri aniqlandi. Samarqand ixshidlarining shohona saroyi ochildi.

Afrosiyobda topilgan arxeologik materiallar Samarqand miloddan avvalgi VIII-V asrlarda Sug'diyonaning markaziy shahri sifatida vujudga kelganligini ko'rsatadi. Mil. av. 329-yilda shahar Aleksandr Maqduniy qo'shinlari tomonidan vayron etilgan, uning izlari hozirgacha shahar mudofaa inshootlarida yaxshi saqlangan. Mil. av. III-I asrlarda, Kushonlar sultanati davrida shahar hayotida yuksalishlar yuz bergen. Mil. av. III asrda shahar qo'shaloq mudofaa devori bilan o'rab olingan. U davrlarning qalin madaniy qatlami Afrosiyobning shim.da, uning arki a'losi joylashgan qismida yaxshi saqlangan. Arxeologik materiallar va yozma manbalarda ta'kidlanishicha, bu zamonda Samarqand orqali Buyuk ipak Yo'li o'tgan, ichki va tashqi savdo, hunarmandchilik rivoj topgan. Ilk o'rta asrlarda Samarqand Sug'diyonaning bosh shaxri sifatida nufuzli mavqega ega bo'lib, shahar ijtimoiy va iqtisodiy hayotida tub o'zgarishlar yuz berdi. Badavlat dehqon xo'jaliklari kuchaydi, xuddi shu kezlarda ularning qasrlari joylashgan Afrosiyobning shim. qismi mudofaa devori bilan o'rab olindi. Bu holat Movarounnaxr va unga qo'shni viloyatlarda ham yuz berdi. Bu davrda Samarqand hukmdorlari „Ixshid“, Buxoro hukmdorlari esa "Buxorxudot" deb atalgan. 712 yilda arablar fotixi Qutayba ibn Muslim qo'shin tortib kelganda, Samarqandning mudofaa devorlari mustahkam bo'lib, atrofida suv to'la xandaq bor edi. Qutayba Samarqanda Farg'ona, Shosh va turklardan yordamga kelgan lashkarlarni enggach, ko'maksiz qolgan Sug'd hokimi G'urak noiloj u bilan sulh tuzdi, shaharning ichki qismi (shahriston)ni arablarga bo'shatib berishga majbur bo'ldi. Arxeologik topilmalar islomga zid bo'lgan haykal va devoriy rasmlarning ataylab qilich bilan chopilganini isbotlaydi.

IX asrning ikkinchi choragidan Movarounnahrda hokimiyat somoniylar qo'liga o'tdi. Buxoro ularning markaziga aylandi. Shu davrda Samarqand iqtisodiy va madaniy jihatdan tez rivojlandi. Afrosiyobda somoniylar davrida o'ymakor ganch naqshlar bilan bezatilgan saroylar, badavlat dehqon xonadonlari, masjid va madrasalar, hammom va kanalizasiyalar, tosh ko'chalar topilmoqda. Shaharni suv bilan ta'minlash og'irligidan aholining ehtiyojini qondirish uchun shahar hayotining dastlabki yillaridayoq Darg'om tomonidan kanal qazib, suv keltirilgan. Ana shu kanal izlari hozirgi shahar xiyobonining jan.da, Alisher Navoiy haykali qad ko'tarib turgan maskanda olib o'rGANildi. Bu kanal Registon maydoni orqali Hazrati Xizr masjidi tomon yo'l olgan. Tarixiy manbalarga ko'ra Afrosiyobga jan.dan kiraverishda shahar xandaqi ustiga pishiqliq g'ishtlardan ravoqli suvay-irg'ich qurilib, uning tepasidan katta ariq o'tkazilgan. Bu ariqni „Juyi arziz“ („Qo'rg'oshin ariq“) deb ataganlar. Ariq shu erda uchgaga bo'lingan va shahar oralab Siyob arig'i bo'yiga borgan.

X asrning oxirida Movarounnahrda hokimiyat qoraxoniylar qo'liga o'tganida xam Samarqanda savdo, hunarmandchilik, shahar obodonchilik ishlari davom etadi. Shaharning hunarmandchilik qiyofasi kuchayib, zodagon dehqon qasrlari endi shahar tashqarisida, ularning dala hovlilarida markazlashadi. 1220 yilda Chingizzon qo'shinlari "Juyi arziz" to'g'onini buzib, shaharni suvsiz qoldirdi. Shahar mudofaachilari tengsiz jangda taslim bo'ldilar. Bosqinchilar shaharning devor va darvozalarini vayron qilib saroy, masjid va madrasalarga, aholi xonadonlariga o't qo'ydilar. Aholining katta qismi jangda qirildi, hunarmandlar Mo'g'ulistoniga haydab ketildi. Shaharni so'nggi mudofaachilari Jome masjidiga yashirinib, qarshilikni davom ettirdilar. Ularning olovda yongan tanalari jang kiyimida bizgacha yetib kelib, arxeologik qazish vaqtida topildi. „Qo'rg'oshin ariq“ qayta tiklanmadı. Afrosiyobda suvsiz qolgan aholi Siyobdan charxpalakda suv chiqarib, kun ko'rgan, so'ng aholi bora-bora Ani butunlay tashlab ketgan. Kimsasiz xarobaga aylangan qadimgi Samarqand avvallari „Hisori ko'hna“, „Qal'ai Hisor“ atalib, XVII-asrdan boshlab aholi orasida "Qal'ai Afrosiyob" yoki "Afrosiyob" deb atala boshlangan.

Afrosiyob kulolchiligi — Afrosiyobda olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan qadimgi o'zbek xalq amaliy san'ati namunalari. IX-XII asrlarda Afrosiyob kulollari tomonidan ishlangan bejirim, nafis sirli idishlar Islom dunyosida keng tarqalgan. Bu idishlar o'zining mohirona ishlanganligi, naqshlarining aniq va mazmundorligi bilan ajralib turadi. Afrosiyob kulollari dastlab ara-blар istilosи (VII asr) gacha bo'lgan san'at an'analariga asoslanib, 9-10-asrlarda keng tarqalgan falsafiy g'oyalarni turli ramzlar, arab alifbosida yozilgan ezgu niyatlar, xalq maqollari, shuningdek kabutar, xo'roz, burgut, ot, yo'lbars, sher tasvirlari, ov manzarasi hamda islamiy gullar va giriqlar bilan o'z asarlarida mu-jassam etganlar. Bezakda asosiy o'rin tutgan kufiy yozuvlar, ayniqsa chuzib yozilgan harflar bilan tik yozilgan „Alif“ va „Lom“ning uygunligi naqshning ta'sirchanligini oshirgan. Keyingi davrlar (XII-XIII asrlar)da Afrosiyob kulolligi dagi bezaklar o'rnini umumlashtirilgan qushlar tasviri, mazmundor arab so'zlari, murakkab gullar, naqshlar oladi. Bundan bezaklar idishlarning kurkamligini burttirib ko'rsatadi. Bu uslub bizning davrimizgacha yetib kelgan. Afrosiyob kulolchiligidagi bezaklar buyum shakliga mosligi, ranglarining yorqinligi va nafisligi bilan kishi diqqatini o'ziga jalb etadi.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo xalqlari san'ati devoriy suratlar, haykaltaroshlik, turli taqinchoq buyumlari orqali izohlanadi. Devoriy suratlar Dilbarjin (Afg'oniston), Varaxsha, Afrosiyob, Panjikentdan topib o'rganilgan bo'lsa, Kuyovqo'rg'on, Vaxsh vohasi, Chaqaloqtepa (Afg'oniston), Yerqo'rg'ondan turli hajmdagi haykallar, zargarlik buyumlari topib o'rganilgan. Umuman olganda, boy bezaklar, sopol, metal idishlar, devoriy suratlar, hatto kiyimlardagi tasvirlar bu davrda O'rta Osiyodagi tasviriy san'atning rivojidan dalolat beradi.[2]

Afrosiyob devoriy rasmlari — Afrosiyob arxeologik qazilmalar natijasida topilgan mahobatli rangtasvirning noyob namunalaridan biridir. Dastlabki namunalari arxeolog V.Vyatkin tomonidan ochilgan (1913y). Keyingi qazishlar davri (1965—68) da o'zbek arxeologlari 30 ga yaqin saroy xonasini ochishga muvaffaq bo`lganlar, bu xonalarning ko`plari devoriy rasmlar, naqshlar bilan bezatilgan. Shulardan katta (11x11 m) va kichik(7x7 m) xonalardagi rasmlar birmuncha yaxshi saqlangan. Xonalardan birida erkak va ayol ark oldida o`tirgan holda tasvirlangan. Katta xona devorlariga ishlangan rasmlar detallarga boyligi, saqlanib qolgan sug`d yozuvlari bilan ahamiyatlari. Xona devorlariga ishlangan rasmlarda to`y marosimi, Sug`d hukmdorining xorijiy davlatlarning elchilarini qabul qilishi, bu elchilarning yo`ldagi sarguzashtlari, yirtqich hayvonlar bilan olishuv, ov manzaralari, afsonaviy maxluklar tasvirlangan. Saklanib qolgan rasmlar tahlili o'rta asr mahobatli tasviriy san`atining g`oyaviy badiiy yo`nalishi, rassomning ish usullari va vositalari haqida, tafsilotlarga boy maishiy sahnalar, etnik ko`rinishlar o`sha davr haqida fikr yuritish imkonini beradi. Rassom devorni 3 qismga bo`lib, 2 chetki qismidan ensiz naqsh hoshiyasi ajratib olgan, asosiy qismga mavzuli tasvir ishlangan. Afrosiyob devoriy rasmlari yagona bir mazmunga bo`ysundirilgan: markazda sug`d hukmdori Varxumon turadi, an`analarga ko`ra rassom uni boshqalarga nisbatan yirik ko`rinishda (butun devor balandligida, 5—6 m) tasvirlab, hukmdorining buyukligini e`tirof etadi, unga abadiylik, qahramonlik baxsh etadi. Afrosiyob devoriy rasmlari O'rta Osiyoda arablar istilosiga qadar mahobatli rangtasvirning rivojlanganligi, Samarqand uning markazi bo`lganligini ko`rsatadi.

Afrosiyob devoriy suratlarida figuralarni qavtma-qavat joylashtirish orqali yassi devorda fazoviy kenglik hosil qilingan. Demak devordagi tasvirning balandda chizilishiga qarab, qanchalik uzoqligini his etamiz. Odamlar qiyofasida ham shu qonunlarga rioya qilinadi, hukmdor shaxslar naturada ulkan, xizmatkorlar esa kichik o'lchamdagи kompozitsiyada o'z yechimini topadi. Bu ularning ichki kechinmalari yuzlarida emas, qo'l,barmoq harakatlarida aks etishi va me'moriy binolarning kichik mashtabligi O'rta Osiyo miniatyurasida keng tarqalganligidan guvohlik beradi.

So'g'd hunarmadlari biror martabali kishilar uchun tikiladigan libos matolariga alohida ahamiyat berishgan. Misol uchun elchilar libosi qimmatbaho, qalin va puxta ishlangan tabiiy ipak va ipdan tayyorlangan matodan tikilgan. Uning qalinligi odam egniga qulaylik va ko'rkamlik baxsh etishi hamda chakmon uchun rasmlar va naqshli bezaklarning ketma-ketligi yaqqol ko'rinishi uchun moslangan. Shuningdek, qalin chakmon uzoq vaqtga chidamli, issiq va sovuq havo ta'siridan saqlanishi uchun mo'ljallangan. Elchi egnidagi

chakmon yurishga qulay bo'lishi uchun pastki qismidan tizzagacha ikki yon tomonidan qirqimlar hosil qilingan. Erkaklar basavlat va ko'r kam ko'r nishi uchun yelka kengligi kengroq qilib bichilgan. Bo'yin qismi va pastki qismi etagining qirqimlariga alohida hoshiya uchun shu matodan boshqa bichim qilganlar. Ba'zida elchi bosh kiyimi ham egnidagi chakmonga munosib tarzda shu matodan tikilgan. Elchilar sardori bosh kiyimi kashtalangan qalpoqdan boshqalariniki esa oddiy peshonaband qilingan tasmalardan iborat bo'lgan.

L.I.Albaum devoriy rang tasvir suratlarni o'rganarkan, mazkur elchilar chakmoni mutlaqo o'zgacha, ya'ni o'zi xos bezaklarda tasvirlanganini va bu hashamlar boshqa devoriy suratlarda ta'kidlaydi. Uning fikricha, elchi chakmoni alohida va mahsus qimmatbaho liboslar go'zalligini namoyon etish uchun tayyorlangan.

Ularning kiyinish madaniyati muhim diplomatik ahamiyatga ega bo'lishidan bir qatorda o'z xalqining milliy madaniyati va san'atini ham namoyish etgan. Elchi liboslari tasvirida doira ichiga olingan turli hayvonlar ko'r nishi, o'simliksimon bezaklar aks etgan. Liboslar bezagi uchun asosan, qizil, ko'k, oq ranglardan foydalanilgan.

Ko'k rangni 4 xil ko'r nishini qo'llagan. Bunga sabab bu rangning O'rta Osiyo tabiatida o'ziga xos o'ringa egaligidir. Liboslarda qalampirmunchoq sifat naqsh uslubi keng qo'llanilgan. Hozirda bu uslubdan o'zbek do'ppilari, kashtado'zligimizda va amaliy san'atning turli ko'r nishlarida qo'llanilayotganligining guvohi bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, Afrosiyob nafaqt So'g'diyonaning balki butun yurtimizning moddiy madaniyatiga balki, uning iqtisodiy-ijtimiy hayotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Afrosiyob devoriy suratlari so'g'dlar turmushi va hayot sharoitlarini yorqin namoyish etadi. Ular so'g'd milliy madaniyatini butun dunyoga tanishtirishning o'ziga xos vositasi. So'g'd o'liasi O'rta Osiyoda rivojlangan davlatlardan biri sifatida Osiyo va Ovro'pa qit'asidagi turli mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar yuritgan. Ayniqsa Buyuk Ipak yo'li So'g'd taraqqiyoti hamda uning Eron, Hindiston, Xitoy kabi davlatlar bilan xalqaro aloqalari rivojlanishi uchun sharofatli zamin yaratdi. Shu boisdan ham, hukmdorlar, elchilarning liboslari alohida ahamiyat qaratilgan. Shu bilan birga, so'g'dlarning o'ziga xos matolari va kiyim-kechaklari, ularning to'qimachilik sanoati boshqa davlatlar bilan turli aloqalarni, ayniqsa savdo munosabatlari rivojlanishiga sabab bo'lgan

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Begaliyev N.B., Turobov A.M. *Samarqand toponimiyasi*, 2015. -B.156.
2. Muydinova M.M. THE ROLE OF ARCHIVAL ACTIVITIES IN THE SYSTEM OF SOCIAL MANAGEMENT IN UZBEKISTAN AT THE PRESENT STAGE. E Conference Zone, 13–17. Retrieved from <http://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1564>.
3. Mo'minov I. Samarqand tarixi birinchi jild – Toshkent., 1971. -B.8-11.
4. Utayeva F.X. O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi. –Buxoro., - 2021. -B.67-69.
5. Альбаум.Л.И. —Афрасиаб. –Ташкент., 1969.

6. Asror o'g'li A. A. PRINCE OF AFGHANISTAN ISAK KHAN ORIENTALIST DN IN THE INTERPRETATION OF LOGOPHET //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 82-85.
7. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 39-46.
8. Asror o'g'li A. A. et al. BUXORO VOHASIDAGI VARDONZE QO 'RG 'ONINING ANTIK VA O 'RTA ASRLAR DAVRI TARIXI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 45. – №. 5. – С. 84-87.
9. Asror o'g'li A. A., Farruxbek N. FARG 'ONA VODIYSIDAGI ILK SHAHARSOZLIK MADANIYAT (CHUST MISOLIDA) //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 45. – №. 5. – С. 88-91.
10. Botirjon O'g'li N. S., Asror o'g'li A. A. UMARXON XUKMRONLIGI DAVRIDA QO'QON XONLIGINING HARBIY SALOHIYATI //JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 374-377.
11. Zoir o'g'li R. Z., Asror o'g'li A. A. QADIMGI XORAZM: O 'ZBEK DAVLATCHILIGINING ILK BOSQICHIDA //JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 378-382.
12. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 39-46.